

## FALSAFIY ANTROPOLOGIYA (INSON FALSAFASI).

*Denov tadbirkorlik va pedagogika*

*Instituti Pedagogika fakulteti*

*maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

*Qurbanova Marjona Abduvoxid qizi.*

*Xikmatullayeva Aziza Akmal qizi.*

*Eshonqulova Durdona O'ral qizi.*

**Annotatsiya.**

Ushbu maqolada –( Inson falsafasi ) – Falsafiy antropologiya . Insonni paydo bo'lishiga olib kelgan tabiatning qonuniy rivojlanishi, insonning, ong, jon, ruxiyat, instinktlar , nuqsonlar , fazilatlari, “inson ” tushunchasi insonni kelib chiqishiga oid qarashlar - odam zotini muayyan darajadagi ijtimoiy xususiyatlar va jihatlarini o'zlashtirib olganligi bilan bog'liq kamolot darajasini ifodalaydi. Ijtimo-iylik “shaxs” tushunchasi uchun ham asosiy xususiyatdir, ammo bunda ijtimoiy ji-hatdan ma'naviy – axloqiy kamolotga yetganlik tushuniladi . Ilmiy adabiyotlarda inson va shaxsga nisbatan rang – barang ta'riflarni, turli xil talqinlarni uchratish mumkin.

**Kalit so'zlar:** antropologiya, inson falsafasi, shaxs, inson, ijtimoiy falsafa.

**Kirish.**

Har tomonlama ma'naviyati yetuk inson, shunday Raxbar bo'ladiki – odamlar ha , bu xalq farovonligi yo'lida g'amxo'rlik qiluvchi va uni hammadan yuksak qo'yuvchi raxbar deydi .

*SH.M.Mirziyoyev*

**Falsafiy antropologiya** (*falsafa* va *antropologiyadan*) **inson falsafasi** keng ma'noda - inson tabiat va mohiyati haqidagi falsafiy ta'limot; tor ma'noda esa XX asrbirinchi yarmidagi G'arbiy Yevropa falsafasining (asosan nemis ) yo'nalishi Dilteyning hayot falsafasi, Gusserl fenomenologiyasi va boshqalar g'oyalaridan kelib chiqqan va yaxlit ta'limot yaratishga intilgan yo'nalish. Falsafa inson borlig'ini olamning tarkibiy qismi sifatida o'rganadi. Inson — o'zida biologik, ijtimoiy va psixik xususiyatlarni mujassamlashtirgan ongli mavjudot. Inson shunday murakkab va ko'p qirrali mavjudotki, uning mohiyati yaxlit bir butunlik sifatida inson, shaxs, individ, individuallik tushunchalari orqali ifodalanadi. Bu tushunchalar bir-biriga yaqin va ma'nodosh bo'lsa ham, bir-biridan farqlanadi.Qadimdan boshlab faylasuflar insonni hayvonlardan ajratib turadigan asosiy tafovutlardan biri deb, **inson xulqini** qayd qilganlar. Insonning xulqi uning ongi yordamida boshqariladi, u insonda ijtimoiy muhit ta'sirida, jamiyatning ta'limi, tarbiyasi va madaniyati,orqali-shakllanadi.Lekin ko'pchilik mutafakkirlar inson bilan hayvonlarni ajratib turadigan muhim farq bu

- **insonning ongi**, insonda ongning mavjudligi, deb tushuntiradilar. Bunday yondashuv ma'lum darajada to‘g‘ri. Biroq inson bilan hayvonlar o‘rtasidagi bu farq ulardagi asosiy va muhim farqlardan faqat bittasidir, xolos. Bunda boshqa muhim farqlarni ham hisobga olish zarur. Masalan, ko‘pchilik mutafakkirlar va faylasuflar insonni hayvonlardan farq qildiruvchi muhim belgi – bu insonga xos **til**, **nutq tili**, degan fikrni ham bildirishgan.

*Ong – falsafaning sub'ektiv reallikni ifodalovchi g‘oyat keng kategoriyasidir; odamning, uning miyasi va psixikasining tashqi dunyoni ideal aks ettirishidir; insonning ma'naviy dunyosidir, o‘zining dunyoda borligini anglab etishidir; uning tashqi-dunyoga, munosabatidir.* Odam – fikr yurituvchi, ongga ega mavjudotdir. Ong yordamida odam tashqi dunyoda faol harakat qiladi, uni biladi, u bilan sub'ekt-ob'ekt munosabatda bo‘ladi. Ong tufayli shaxsnинг ma'naviy dunyosi, uning emotsiyalari, kechinmalari, tashvish va istaklari, orzu-umidlari, fantaziyalari mavjud. Xuddi shu ongi tufayli inson hayvonot dunyosidan farq qiladigan aqli mavjudot sifatida mavjuddir. Insonning barcha hayvonlardan farqlantiruvchi xususiyati bo‘lgan ong to‘g‘risida gapirar ekan, o‘rta osiyolik atoqli faylasuf al-Farobiy bunday deb yozgan edi: «Inson o‘zining alohida xususiyatlari bilan barcha hayvonlardan farq qiladi, chunki unda jon bor, undan tana a'zolari vositasida ta'sir etuvchi kuchlar paydo bo‘ladi, bundan tashqari, unda tana a'zolarining vositasisiz ta'sir etuvchi kuch ham bor. Bu, kuch-aqldir». Fan va falsafada ong muammozi – bu, pirovardida, psixologik, fiziologik va sotsial holatlarning o‘zaro nisbati, munosabati masalasidir: agar inson aqli materiya evolyusiyasining natijasi bo‘lsa, fikr fikrlovchi materianing, inson bosh miyasining, miya katta yarim sharining oliy xossasidir.

Inson ongi til bilan uzviy bog‘liqdir. Til fikrning moddiy ko‘rinishidir, shaklidir. Odam fikrning mazmunini turli lisoniy tizimlar: og‘zaki nutqlar va yozma matnlar, hozirgi zamon informatikasining sun‘iy tillari yoki turli simvollar, kodlar, shifrlva hokazlar orqali bilib oladilar. Inson ko‘plab fanlar o‘rganadigan predmetdir. Biologiya uni Homo sapiens turi sifatida qaraydi. Pedagogika uchun u tarbiya ob'ekti, sotsiologiya uchun - turli munosabatlar sub'ekti, kulturologiya uchun - madaniyatning ob'ekti va sub'ekti, iqtisodiy nazariya uchun - asosiy ishlab chiqarish kuchi, va-hokazo. Tabiiy fanlar orasida an'anaviy (biologiya, antropologiya, meditsina va boshqalar) bilan bir qatorda nisbatan yangi fanlar (oliy nerv tizimi faoliyati fiziologiyasi, somatologiya, seksologiya va hokazo) paydo bo‘ldi. Ijtimoiy bilim sohasida ham «eski» fanlar (psixologiya, sotsiologiya, tilshunoslik, etika) qatorida «yangi» fanlar (aksiologiya, germenevtika) kabilar faoliyat ko‘rsatishadi.

XX asrda ilmiy bilimning shiddatli rivoji, parallel tarzda boruvchi fanlarning faol differensiatsiyasi va integratsiyasi tabiiy-ilmiy va ijtimoiy fanlar chegarasida bir qator yangi fanlarning: bioetika va tibbiyot etikasi, sotsiobiologiya, psixofiziologiya va boshqalarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Bu hol falsafaning inson

muammolarini ko'rib chiqishdagi metodologik roli haqidagi masalani yanada dolzarb, etib-qo'yadi. Biz yuqorida aytib o'tganimizdek, inson ko'p fanlar tomonidan predmet sifatida qaraladi, shu sababli bizning oldimizda muhim bir vazifa – inson muammosining aynan falsafiy aspektlarini ochib berish turadi. Inson muammosining falsafaga oid masalalari deb quyidagilarni hisoblash mumkin: a) inson mohiyati; b) insonda ijtimoiylik va biologik (tabiiylik)ning nisbati; v) shaxsning erkinligi; g) insonning mavjud bo'lishi (borlig'i) va mohiyatining dialektikasi; d) inson hayotining maqsad va ma'nosi.

Aslida falsafa inson muammosini o'rganar ekan, u eng avvalo, insonni borliqning o'ziga xos bir shakli sifatida olib, uni eng murakkab borliq sifatida, uning o'ziga xos eng muhim tomonlari, xususiyatlarini, uni borliqning boshqa shakllari va ko'rinishlari bilan o'zaro bog'lanishlarini, aloqadorlik tomonlarini hamda ulardan tub farqlarini qarab chiqishi lozim. SHu sababli faylasuflar qadimdan boshlab insonning o'ziga xos muhim, boshqa barcha tirik mavjudotlardan farq qildiruvchi xususiyati deb, uning aqlini tushunganlar. SHu tufayli ular insonni dastlab o'z asarlarida «aqli mavjudot», «aqli hayvon» deb ta'riflaganlar. Keyinchalik jamiyatning taraqqiyoti asosida ular insonni «siyosiy hayvon», «ijodkor hayvon», «tarixning ijodkori», «gapiradigan, tilga va nutqqa ega hayvon», “dunyoga diniy munosabatda bo'luvchi mavjudot», deb izohlay boshlagan. Ma'lum davrlardan keyin esa ba'zi faylasuflar insonni «ma'lum maqsadga yo'naltirilgan, xulq-atvorga ega bo'lgan mavjudot», deb tushuntira boshlaydilar. **Falsafiy antropologiya** (falsafa va antropologiyadan) **inson falsafasi** keng ma'noda - inson tabiat va mohiyati haqidagi falsafiy ta'limot; tor ma'noda esa XX asrbirinchi yarmidagi G'arbiy Yevropa falsafasining (asosan nemis ) yo'nalishi Dilteyning hayot falsafasi, Gusserl fenomenologiyasi va boshqalar g'oyalaridan kelib chiqqan va yaxlit ta'limot yaratishga intilgan yo'nalish(maktab). Turli fanlar - psixologiyabiologiya etologiya va sotsiologiya shuningdek, din va boshqalar ma'lumotlaridan foydalanish va sharhlash orqali. Falsafiy antropologiyaning boshlanishi Maks Shelerning ushbu yo'nalish uchun klassik <<Insonning kosmosdagi holati>> ( 1928 ), va Helmut Plesnerning <<Organik va inson bosqichlari>> ( 1928 ) asarlarining paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, ularning diqqat markazida inson muammosi, odam va hayvonlarning mavjud bo'lish tarzidagi o'ziga xos farq. Keyinchalik Arnold Gelenning <<Inson.Uning tabiat va dunyodagi mavqeい>> (1940) va <<Ibtidoiy odam va kech madaniyat>> (1956) klassik asarlari nashr etildi. Insonning yaralishi, mohiyati va jamiyatda tutgan o'rni falsafiy muammolar tizimida muhim o'rin tutadi. Turli falsafiy ta'limotlarda bu masalalar turlicha talqin etib kelingan. Shunday bo'lishi tabiiy ham edi, chunki inson mohiyatan ijtimoiy-tarixiy va madaniy mavjudot sifatida har bir yangi tarixiy sharoitda o'zligini chuqurroq anglashga, insoniy mohiyatini ro'yobga chiqarishga intilaveradi. Suqrotning «O'zligingni bil» degan hikmatli so'zi har bir tarixiy davrda yangicha ahamiyat kasb etadi. Insonda butun olam

va jamiyatning mohiyati mujassamlashgandir. Ulug` mutasavvuf Abdulholiq g`ijduvoniy insonni «kichik olam» deb hisoblagan. Falsafada babs yuritiladigan barcha masalalar inson muammosiga bevosita dahldordir. Umuman olganda, insonga dahldor bo'lmasa, unga foyda keltirmasa, jamiyatning og`irini engil qilmasa, unday fanning keragi bormikan? Shu ma`noda, inson, avvallo, o`zi uchun zarur bo`lgan fanlarni, ilmlar va bilimlar tizimini yaratgan.Tabiat, madaniyat, siyosat, sivilizasiya, bilish kabi masalalar inson manfaatlari va insoniy mohiyatning namoyon bo`lish shakllaridir. Ularning barchasi inson tabiatini va mohiyati bilan bog`liqdir.Falsafa insonni olamning tarkibiy qismi sifatida o`rganadi. Inson shunday murakkab va ko`p qirrali mavjudotki, uning mohiyati yahlit bir butunlik sifatida inson, shahs, individ, individuallik tushunchalari orqali ifodalanadi. Bu tushunchalar bir-biriga yaqin va ma`nodosh bo`lsa ham, bir-biridan farqlanadi.Inson — o`zida biologik, ijtimoiy va psihik hususiyatlarni mujassamlashtirgan ongli mavjudot. Insonning biologik hususiyatlariga ovqatlanish, himoyalanish, surriyot qoldirish, sharoitga moslashish kabilalar hos.Falsafa tarixida inson tug`risidagi ta`limotlarda biologizm, sosiologizm, psihologizm kabi yo`nalishlar vujudga kelgan. Biologizm insonning tabiiy-biologik hususiyatlariga, sosiologizm insonning ijtimoiy hususiyatlariga, psihologizm esa, ma`naviy, ruhiy, psihologik hususiyatlariga bir yoqlama yondashishga asoslangan edi.Inson mohiyatini falsafiy jihatdan chuqurroq tahlil qilishda shahs, individ, individuallik tushunchalarining mohiyatini bilish va ularni bir — biridan farqlash muhimdir. Shahs o`zida sosial sifatlarni mujassamlashtirgan insonni ifoda etadi. Kishilar shahs bo`lib tug`ilmaydi, balki jamiyatdagina shahs bo`lib shakllanadi va rivojlanadi. Chunki insonga hos ijtimoiy sifatlar, fazilatlar avloddan-avlodga irsiy yo`l bilan o`tmaydi. Inson dunyoga kelgan vaqtida jamiyat, siyosiy tuzum, madaniyat, ishlab chiqarish, oila, ommaviy ahborot vositalari, mafkura kabi ijtimoiy tuzilmalar mavjud bo`ladi.Inson ta`lim-tarbiya, mehnat, muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba, bilim, turli munosabatlar, ahloqiy me`yorlar, siyosiy G`oya, milliy mafkura kabi omillar ta`sirida yashaydi, ularni o`zlashtiradi va shu jarayonda ijtimoiylashadi, ya`ni shahs bo`lib shakllanadi. Natijada insonda yangicha fazilat va sifatlar paydo bo`ladi. U yaratuvchan mavjudot sifatida faoliyat ko`rsata boshlaydi.O`z-o`zini nazorat qilish, o`z-o`zini tarbiyalash, yuksak mas`uliyatni his etish, G`oya uchun kurashish, mustahkam e`tiqodga ega bo`lish, o`z fikr-mulohazalarini erkin bayon etish va ijtimoiy-siyosiy faollik shahsga hos belgilardir. Shahsning maqsad, G`oya va ideallari jamiyatdagi mavjud G`oya va mafkura bilan uzviy bog`liq ravishda shakllanadi. Milliy G`oya va mafkurani amalgalashish, ezgu ideallar yo`lida hatto hayotini qurbon qilish shahs hayotining bosh maqsadiga aylanadi.Shaxs mustahkam iymon-e`tiqod, G`oya va insoniy fazilatlarga ega bo`lgan, Vatan, millat tuyg`usi bilan yashaydigan, o`zida davr hususiyatlarini ifoda etadigan insondir.Jamiyat o`z taraqqiyoti davomida vujudga kelgan muammolarni hal etish uchun shahsning muayyan tarixiy namunalarini yaratadi. Har bir o`zgargan

tarixiy sharoitda shahs mohiyatini va mazmunini yangicha tushunish zaruriyatı vujudga keladi. Bugungi adabiyotlarda harizmatik, shuhratparastlik, tajovuzkorlik va boshqa shakldagi shahslar timsoli aks ettirilmoqda. Antropologiya inson mohiyatini, uning tabiat va jamiyatdagi o'rnini, o'ziga hos hususiyatlarini o'rganish bilan shug`ullanadi. Antropologiyada inson mohiyatini to'laroq ochish uchun «men», «ong», «shahs», «ruh» tushunchalari qo'llanadi. «Men» — insonning o'zligini tashqi olamdan, real borliqdan farqlashidir. «Men» ong tufayligina o'zini boshqa borliqdan farqlaydi. Boshqa narsalar insonga begona voqelik bo'lib tuyuladi. Shahs insonning mustaqilligini ifoda etadi. Antropologiya insonning ma`naviy olamiga chuqurroq kirib borish orqali olam mohiyatini bilish mumkin, degan G'oyani ilgari suradi. Islom Karimov ta`rifiga ko'ra, ma`naviyat (ruh) insonni ahloqan poklaydigan, iymone`tiqodini mustahkamlaydigan, ezgulikka undaydigan botiniy kuchdir. Yuksak ma`naviyatda haqiqiy insoniy mohiyat mujassamdir. Insonning oljanob fazilatlari etuk shahslar timsolida o'z aksini topadi. Insonga hos bo'lgan barcha hususiyatlar shahs faoliyatida, uning jamiyatda tutgan o'rnida, uning o'z moddiy va ma`naviy ehtiyojlarini qondirishida, muayyan mafkurani amalga oshirishida yaqqol ko'rindi. Inson mohiyatini falsafiy bilish ulkan tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. Inson falsafasi har bir yangi tarixiy davrda inson mohiyati, uning jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi. Insonga hos hususiyat va fazilatlarni bilish orqali talaba o'zida shunday sifatlarni shakllantirishga intiladi. Bunday fazilatlar falsafa va boshqa ijtimoiy fanlarni o'rganish va umuman, ta`lim-tarbiya jarayonida shakllanadi. Zamonaviy bilim va yuksak insoniy fazilatlarni egallash orqali O'zbekistonda ozod va obod jamiyat qurish vazifalari uyg'unligini ta'minlashga erishish butun ta`lim-tarbiya ishimizning bosh mezoni va uning oldida turgan muhim vazifadir. Jamiyat nima? Insoniyat azal-azaldan jamoa bo'lib yashaydi. Yer sayyorasi uning abadiy makoni, umumiy Vatanidir. Quyosh tizimidagi ana shu mitti sayyorada yashayotgan odamlar oilasini jamiyat deb atash odat tusiga kirgan. Demak, umumbashariy ma`noda jamiyat odamzodning umri, hayoti o'tgan hamma davri, joy va hududi bilan bog'liq barcha o'zgarish va jarayonlarni ifoda etadi. **Falsafiy antropologiya** inson tabiatining mohiyati va insoniy holatini o'rganadigan falsafiy fan. Bu so'rovni o'tkazishda u inson tabiat haqidagi savolga javob berishda turli xil ilmiy uslublar va gumanistik yondashuvlarni falsafiy jihatdan birlashtirishga yoki tanqid qilishga intiladi. Garchi falsafa tarixi davomida mutafakkirlarning ko'pchiligi o'ziga xos antropologiyaga (yoki inson tabiat haqidagi tushunchaga) ega bo'lgan bo'lsalar - da, "falsafiy antropologiya" o'ziga xos fan sifatida yaqinda zamonaviy davning oxirida paydo bo'lgan. Bu, birinchi navbatda, tabiiy va gumanitar fanlarning davom etayotgan taraqqiyoti bilan o'zaro bog'liq bo'lgan falsafada yangi usul va yondashuvlar rivojlanishining natijasi sifatida paydo bo'ldi. Zamonaviy falsafiy antropologiyaning eng ta'sirli ikkita rivojlanishi fenomenologiya va ekzistensializm mifikalarida sodir

bo'lgan. Zamонавиъ даврда табиий фанларнинг ривожланishi шunga о'xshash ilmiy metodologiyaning гуманитар фанлар bo'yicha qo'llanilishiga olib keldi. Natijada, XIX asrda inson tabiatи haqidagi savolga har xil yangi usullar va alohida фанлар doirasida yondashildi. Masalan, Darwin evolyutsiyasining yuksalishi inson tabiatini faqat biologik kuchlar orqali tushuntiradi. Karl Marks falsafasi "insoniyatning mohiyatini" birinchi navbatda iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy kuchlar orqali tushuntiradi, Zigmund Freyd nazariyalari inson tabiatini birinchi navbatda psixologik kuchlar orqali tushuntiradi. Tarix va sotsiologiya kabi boshqa гуманитар фанлар, xuddi shunday "tabiat" ni emas, balki shaxslarni belgilaydigan mavjudot turiga aylantiradigan madaniy va ekologik sharoitlarni tushuntirishga intiladi. Bu nazariyalarning ba'zilari faqat ma'lum bir madaniy kontekstda yoki insoniyat tarixidagi даврда qo'llaniladigan tushuntirish berish bilan chegaralanadi. Qanday bo'lmasin, turli фанлар va ilmiy metodlarning bir -biri bilan qanday bog'liqligi yoki uyg'unligi, inson tabiatining yagona falsafiy tasavvurida juda muammoli bo'lib qoldi. «Inson» tushunchasi esa odam zotini muayyan darajadagi ijtimoiy xususiyatlar va jihatlarni o'zlashtirib olganligi bilan bogliq kamolot darajasini ifodalaydi. Ijtimoiylik «shaxs» tushunchasi uchun ham asosiy xususiyatdir, ammo bunda ijtimoiy jihatdan ma'naviy-axloqiy kamolotga yetganlik tushuniladi. Ilmiy adabiyotlarda inson va shaxsga nisbatan rang-barang ta'riflarni, turli xil talqinlarni uchratish mumkin. *Inson avvalo tiriklikning eng oily mo'jizasi, boshqa jonzotlardan ajralib turuvchi ijtimoiy mavjudot sifatida, tabiiy-tarixiy qadriyatdir. Falsafada inson muammo bosh muammo ekanligiga shubha yo'q.* Falsafa tarixida insonga murojaat etmagan, inson moddiy va ma'naviy borlig'ining turli tomonlarini bevosita yoki bilvosita tahlil qilmagan faylasuf yoki falsafiy yo'nalishni topish deyarli mumkin emas. Aksariyat falsafiy va diniy tizimlar, katta olam yoki makrokosmga zid o'laroq, insonga mikrokosm yoki kichik Koinot sifatida qarab, uni butun olamni tushunish kaliti, deb hisoblaganlar. Faylasuflar inson sirining tagiga etish borliq jumbog'ining tagiga etish bilan barobar ekanligini qayta-qayta anglab etganlar. Zero, Forobiy aytganidek, «Odamlar o'zlarining xos xususiyatlariga va tabiiy ehtiyojlariga ko'ra jamiyat tuzadilar. Ularning harakat va fe'llarini dastavval bora-bora odatlarga aylanadigan tabiiy qobiliyatlar belgilaydi»<sup>1</sup>. O'z-o'zingni angla va shu orqali dunyonи anglaysan. Dunyonи insonning teran qatlamlariga kirmasdan, sirdan bilishga bo'lgan barcha urinishlar, narsalar haqida faqat yuzaki tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Insondan sirtga qarab harakat qiladigan bo'lsak, narsalar mohiyatini hech anglay olmaymiz, zero, bu mohiyat insonning o'zida mujassamlashgan. Bu fikr qadimgi mutafakkirlargayoq yaxshi ma'lum bo'lgan. Unga turli ko'rinishlarda Sharqda ham, Yunon-rim falsafiy an'anasisda ham duch kelish mumkin. Xususan, antik даврда Delfidagi Apollon ibodatxonasiga kiraverishda ustunga o'yib yozilgan, rivoyatlarga qaraganda, Suqrot takrorlashni yaxshi ko'rgan «O'z-o'zingni angla», degan ibora, ayniqsa, mashhur bo'lgan. Ajablanarlisi shundaki,

oradan ikki yarim ming yil vaqt o‘tgach, hozir ham bu fikr o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. U nafaqat narsalar dunyosini, balki inson borlig‘ining mohiyatini, inson va ijtimoiy munosabatlarning asl tabiatini tushunishga harakat qilayotgan har bir odam uchun o‘z-o‘zini anglashga chorlovchi fikr bo‘lib qolmoqda. Buni faqat shu bilan izohlash mumkinki, ayni holda har bir yangi avlod o‘z davri hamda tabiiy-ilmiy va falsafiy tasavvurlarning tegishli darajasi nuqtai nazaridan echishga harakat qiladigan o‘ta murakkab, «boqiy» falsafiy masala lardan biri to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Tarixga boshqa ko‘p sonli iboralar ham ma’lum bo‘lib, ular vaqt, madaniyat va diniy e’tiqoddan qat’i nazar, inson barcha zamonlarda butun dunyo mutafakkirlarining diqqat markazida bo‘lgani va hozir ham shunday ekanligi, tayanch nuqtasi va hatto bilish mezoni bo‘lib xizmat qilishidan dalolat beradi. Xususan, qadimgi xitoy faylasufi Lao Szi fikriga ko‘ra, «boshqalarni biluvchi –oqil, o‘zini biluvchi –donishmanddir». Protagorning: «Inson barcha narsalar mezonidir», degan fikri ham juda mashhur. «Tangri saltanati bizning ichimizdadir», deb o‘rgatgan Iso Masih. Buddaviylarning: «O‘zligingga nazar tashla, sen Buddasan», degan chorlovi ham yuqorida fikr bilan hamohangdir. Islomda «Kimki o‘zini bilsa, u Allohnim ham bilgaydir», deyiladi. Demak, inson o‘zini dunyodan oldinroq va ko‘proq biladi, ayni shu sababli, u dunyoni o‘zidan keyin va o‘zi orqali anglab etadi. Falsafa dunyoni inson orqali ichdan bilishdir, fan esa insondan tashqaridagi dunyoni yuzaki bilish demakdir. Insonda mutlaq borliq, insondan tashqarida esa – nisbiy borliq namoyon bo‘ladi. Inson falsafiy muammo sifatida. Falsafa tarixida insonga murojaat etmagan, inson moddiy va ma’naviy borlig‘ining turli tomonlarini bevosita yoki bilvosita tahlil qilmagan faylasuf yoki falsafiy yo‘nalishni topish deyarli mumkin emas. Aksariyat falsafiy va diniy tizimlar katta olam yoki makrokosmga zid o‘laroq, insonga mikrokosm yoki kichik Koinot sifatida qarab, uni butun olamni tushunish kaliti deb hisoblaganlar. Faylasuflar inson sirining tagiga yetish borliq jumbog‘ining tagiga yetish bilan barobar ekanligini qayta-qayta anglab yetganlar. Zero Forobiy aytganidek – ”Odamlar o‘zlarining xos xususiyatlariga va tabiiy ehtiyojlariga ko‘ra jamiyat tuzadilar. Ularning harakat va fe’llarini dastavval bora-bora odatlarga aylanadigan tabiiy qobiliyatlar belgilaydi”<sup>1</sup>. O‘z-o‘zingni angla va shu orqali dunyoni anglaysan. Dunyoni insonning teran qatlamlariga kirmasdan sirtdan bilishga bo‘lgan barcha urinishlar narsalar haqida faqat yuzaki tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Insondan sirtga qarab yuradigan bo‘lsak, narsalar mohiyatini hech anglay olmaymiz, zero bu mohiyat insonning o‘zida mujassamlashgan. Inson falsafiy muammo sifatida. Falsafa tarixida insonga murojaat etmagan, inson moddiy va ma’naviy borlig‘ining turli tomonlarini bevosita yoki bilvosita tahlil qilmagan faylasuf yoki falsafiy yo‘nalishni topish deyarli mumkin emas. Aksariyat falsafiy va diniy tizimlar katta olam yoki makrokosmga zid o‘laroq, insonga mikrokosm yoki kichik Koinot sifatida qarab, uni butun olamni tushunish kaliti deb hisoblaganlar. Faylasuflar inson sirining tagiga yetish borliq jumbog‘ining tagiga yetish bilan barobar ekanligini

qayta-qayta anglab yetganlar.Zero Forobiy aytganidek -"Odamlar o'zlarining xos xususiyatlariga va tabiiy ehtiyojlariga ko'ra jamiyat tuzadilar. Ularning harakat va fe'llarini dastavval bora-bora odatlarga aylanadigan tabiiy qobiliyatlar belgilaydi"1. O'z-o'zingni angla va shu orqali dunyoni anglaysan. Dunyoni insonning teran qatlamlariga kirmasdan sirtdan bilishga bo'lgan barcha urinishlar narsalar haqida faqat yuzaki tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Insondon sirtga qarab yuradigan bo'lsak, narsalar mohiyatini hech anglay olmaymiz, zero bu mohiyat insonning o'zida mujassamlashgan. Inson falsafiy muammo sifatida. Falsafa tarixida insonga murojaat etmagan, inson moddiy va ma'naviy borlig'ining turli tomonlarini bevosita yoki bilvosita tahlil qilmagan faylasuf yoki falsafiy yo'nalishni topish deyarli mumkin emas. Aksariyat falsafiy va diniy tizimlar katta olam yoki makrokosmga zid o'laroq, insonga mikrokosm yoki kichik Koinot sifatida qarab, uni butun olamni tushunish kaliti deb hisoblaganlar. Faylasuflar inson sirining tagiga yetish borliq jumbog'ining tagiga yetish bilan barobar ekanligini qayta-qayta anglab yetganlar.Zero Forobiy aytganidek -"Odamlar o'zlarining xos xususiyatlariga va tabiiy ehtiyojlariga ko'ra jamiyat tuzadilar. Ularning harakat va fe'llarini dastavval bora-bora odatlarga aylanadigan tabiiy qibiliyatlar belgilaydi"1. O'z-o'zingni angla va shu orqali dunyoni anglaysan. Dunyoni insonning teran qatlamlariga kirmasdan sirtdan bilishga bo'lgan barcha urinishlar narsalar haqida faqat yuzaki tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Insondon sirtga qarab yuradigan bo'lsak, narsalar mohiyatini hech anglay olmaymiz, zero bu mohiyat insonning o'zida mujassamlashgan.

### **Xulosa.**

**Xulosa qilib aytganda - Falsafiy antropologiya** inson tabiatining mohiyati va insoniy holatini o'rganadigan falsafiy fan hisoblanadi . Bu so'rovni o'tkazishda u inson tabiatini haqidagi savolga javob berishda turli xil ilmiy uslublar va gumanistik yondashuvlarni falsafiy jihatdan birlashtirishga yoki tanqid qilishga intiladi. Garchi falsafa tarixi davomida mutafakkirlarning ko'pchiligi o'ziga xos antropologiyaga (yoki inson tabiatini haqidagi tushunchaga) ega bo'lgan bo'lilar -da, "falsafiy antropologiya" o'ziga xos fan sifatida yaqinda zamонавиy davrning oxirida paydo bo'lgan. Bu, birinchi navbatda, tabiiy va gumanitar fanlarning davom etayotgan taraqqiyoti bilan o'zaro bog'liq bo'lgan falsafada yangi usul va yondashuvlar rivojlanishining natijasi sifatida paydo bo'ldi. Zamонавиy falsafiy antropologiyaning eng ta'sirli ikkita rivojlanishi fenomenologiya va ekzistensializm maktablarida sodir bo'lgan. Pol Rikur - falsafiy antropologiyani yaratgan zamонавиy faylasuf. U buni dialektik germenevtika orqali amalga oshirdi, shu bilan fenomenologik yondashuvni turli xil empirik yoki ilmiy usullar bilan birlashtirdi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Pulatova D., Qodirov M., Ahmedova M. va boshq. Falsafa tarixi: Sharq falsafasi. O'quv qo'llanma. –T.: TDSHI. 2013.

2. Tulenov J.,Tulenova G.,Tulenova K. Falsafa. Darslik.– T.: Fan va texnologiya, 2016.
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: Yangi asr avlodи, 2016. - 318 b.
4. G.Tulenova, D.Sagdullayeva. Falsafa (O‘quv qo‘llanma ). - T.: “Aloqachi”, 2019.

